

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON RESPUBLIKALARIDA PARTIYAVIY TIZIMLAR TARAQQIYOTI: QIYOSIY-SIYOSIY TAHLIL

Botirov Doniyor O‘tkirovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

+998997546884

E-mail: botirovdoniyor506@gmail.com

ORCID: [0009-0004-2496-5226](https://orcid.org/0009-0004-2496-5226)

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarining partiyaviy tizimlarini qiyosiy tahlil qiladi. Mustaqillikdan keyingi siyosiy rivojlanish, partiyaviy tizimlarning tuzilishi, saylov jarayonlari va xalqaro ta’sirlar ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston siyosiy tizimida hukumatni qo‘llab-quvvatlovchi partiyalar ustunlik qiladi. Qozog‘istonda esa Amanat partiyasi hukmron bo‘lib, so‘nggi islohotlar siyosiy pluralizmni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Maqola ikki davlatning siyosiy tizimlaridagi o‘xshashlik va farqlarni, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, Markaziy Osiyodagi siyosiy dinamika va demokratiya yo‘lidagi kelajak istiqbollari baholaydi.

Kalit so‘zlar: siyosiy spektrum, partiyaviy tizim, saylov tizimi, bir partiyali tizim, ikki partiyali tizim, ko‘ppartiyali tizim, siyosiy madaniyat, tarixiy institutsionalizm demokratiya va pluralizm.

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор проводит сравнительный анализ партийных систем в Республиках Узбекистан и Казахстан. В исследовании рассматриваются политическое развитие после обретения независимости, структура партийных систем, избирательные процессы и международное влияние. В политической системе Узбекистана преобладают партии, поддерживающие правительство. В Казахстане доминирующее положение занимает партия "Аманат," а последние реформы направлены на расширение политического плюрализма. В статье выявляются сходства и различия в политических системах двух стран, подчеркиваются их сильные и слабые стороны. Также оценивается политическая динамика в Центральной Азии и рассматриваются будущие перспективы демократии в регионе.

Ключевые слова: политический спектр, партийная система, избирательная система, однопартийная система, двухпартийная система, многопартийная система, политическая культура, исторический институционализм, демократия и плюрализм.

ABSTRACT

In this article, the author conducts a comparative analysis of the party systems in the Republics of Uzbekistan and Kazakhstan. The study examines post-independence political development, the structure of party systems, electoral processes, and international influences. In Uzbekistan's political system, government-supporting parties predominate. In Kazakhstan, the Amanat party holds a dominant position, while recent reforms aim to expand political pluralism. The article identifies similarities and differences in the political systems of the two countries, highlighting their strengths and weaknesses. It also evaluates the political dynamics in Central Asia and assesses future prospects for democracy in the region.

Keywords: *political spectrum, party system, electoral system, single-party system, two-party system, multi-party system, political culture, historical institutionalism, democracy, and pluralism.*

KIRISH

Davlatning siyosiy tizimi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga kirishuvchi bir qancha tashkilot va institutlardan iborat. Siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi va uning asosiy bo'g'inlaridan biri esa siyosiy partiyalar hisoblanadi. Biz ushbu bobning yuqoridagi qismlarida O'zbekiston va Qozog'iston davlatlarida partiyalarning davlatchilik, fuqarolik jamiyati, parlamentning shakllanishi va rivojlanishidagi o'rnini va partiyaviy tizimning shakllanish dinamikasini alohida tahlil qildik. Maqolada O'zbekiston va Qozog'iston siyosiy partiyalarining shakllanishidagi uyg'unliklar, farqlar, partiyalarga doir qonunchilikdagi tafovutlar, siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlarining hukumat rivojlanish dasturlari bilan bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Tom ma'noda, demokratiya faol siyosiy partiyalarning bo'linishi va jamiyatdagi hurfiylikni taqozo etadi. Siyosiy partiya – mukammal siyosiy birlashma bo'lib, demokratik boshqaruv jarayonlariga muhim bo'lgan bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Bularning eng muhimlaridan biri davlat muassasalari va organlari ustidan ma'lum ma'noda nazoratni qo'lga kiritish maqsadida saylovlarda qatnashish hamda g'alaba qozonish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikalarida ijtimoiy hayot siyosiy partiyalar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Bu esa, tabiiyki, o'z-o'zidan jamiyatda siyosiy pluralizmning vujudga kelishini kafolatlaydi. Biz quyida Qozog'iston va O'zbekistonda siyosiy tizim, xususan, ularning asosiy komponenti hisoblangan siyosiy partiyalari va partiyaviy tizimlari hamda ular faoliyatining qiyosiy tahlili bilan bog'liq masalalarga batafsilroq to'xtalamiz.

TADQIQOT USULLARI

Muallif ushbu maqolada siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarni tahlil qilib, turli tadqiqot usullaridan foydalangan. Xususan, O'zbekiston va Qozog'istonda partiyaviy tizimning qaror topishi, huquqiy asoslarining yaratilishi, rivojlanishi va institutsionallashtiruvini tarixiy metod, tarixiy institutsionalizm metodi, kontent va event tahlillardan foydalanilgan. Ikki davlatning partiyaviy tizimlarini tahlil qilishda taqqoslash va qiyoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston siyosiy partiyalari va partiyaviy tizimlarni nazariy jihatdan tadqiq qilish, ularni ta'riflash va tasniflashga doir bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, qozoq siyosatshunos olimi Marat Baypakov siyosiy partiyalarning parlamentda va saylovlarga ishtirok etishiga doir tahlillarni amalga oshiradi. Jamiyatning siyosiy hayoti ichki va tashqi omillar ta'sirida bo'lgan ijtimoiy institutlar va jarayonlarning turli ta'sirlariga duch keladi. Bu esa siyosiy tizimning, shu jumladan partiyalarning ham, doimiy ravishda o'zgarib turishiga olib keladi. Professor Riko Isaak o'zining "Rasmiy va norasmiy siyosat orasida Qozog'iston partiyaviy tizimining shakllanishi"¹ asarida Qozog'iston partiya tizimining vujudga kelishi va amal qilishini rasmiy, jumladan huquqiy institutlar faoliyatini chuqur tadqiq qilgan. Turk siyosatshunos olimi Gürhan Ünal esa, O'zbekistondagi siyosiy tizim va partiyaviy tizimning qaror topishi va o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy asoslangan tahlillarini bayon qiladi. Aynan O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimi va davlatchiligida siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlarning shakllanish dinamikasi borasida M.Qirg'izboyev², Q. Jo'rayev³, U. Bo'tayev⁴, I. Bekov⁵, S.Berdikulov⁶, O.Babajanov, A.Yangibayev⁷, N.Qarshiyev, R.G'oziyev va B.Najmiddinov kabi partiyashunoslar o'z yondashuvlarini berib o'tganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari partiyalarini qiyoslar ekanmiz, bir jihat alohida ko'zga tashlanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida, Markaziy Osiyo

¹ Isaacs R. Party System Formation in Kazakhstan Between Formal and Informal Politics// Central Asian Studies. –New York: Routledge, 2011. – P. 152.

² Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. -T.: Sharq, 1998. – B.56-57.

³ Jo'rayev Q. Rivojlangan davlatlarda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi-demokratik taraqqiyotning muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida)

⁴ Bo'tayev U. Siyosatshunoslik. Darslik. Toshkent. Best publish. 2023. –B.86.

⁵ Bekov I. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va siyosiy partiyalar: Monografiya. T.:TDYI nashriyoti, 2010. –B.96.

⁶ Berdikulov S. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik milliy modelining falsafiy genezisi va rivojlanish istiqbollari. Doktorlik dissertatsiyasi.

⁷ Yangibayev.A.K. Siyosiy partiyalarning davlat vakillik organlari shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi. yurid. fan.nom. ...dis.avtoref. –T., 2020. –B.21.

davlatlari kommunistik partiya faoliyatini tugatib, yangi partiyalar tuzishga kirishishdi. Riko Isakning qayd etishicha, “Turkmaniston va O‘zbekistonda mintaqaviy kommunistik partiyalar tezlik bilan ikki yangi “demokratik” partiyaga - Turkmaniston Demokratik partiyasi va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasiga silliq o‘tishni amalga oshirdi. Partiyalarning ichki tuzilmasi va tarkibi deyarli o‘zgarmadi, biroq davlat boshqaruvida ularning o‘tmishdoshlari kabi kuch va ta’sirga ega bo‘lmadi. Hatto Qozog‘istonda, Prezident Nursulton Nazarboyev dastlab Kommunistik partiyaning taqiqlagan bo‘lsa-da, u mustaqillikdan so‘ng Kommunistik partiya tuzilishi va shakliga o‘xshash yagona partiya yaratishga intildi. Bunga nihoyat 2006-yil oxirida erishildi - Nazarboyev turli hukumat tarafdori partiyalarni “Nur Otan” deb nomlangan katta prezident tarafdori partiyasiga birlashtirdi”⁸. Olimning fikr-mulohazalariga qo‘shilgan holatda shuni ta’kidlash joizki, yakka mafkura asoslangan kommunistik partiyada voz kechilgan bo‘lsada, yangi tuzilgan demokratik tamoyillarga asoslangan partiyalar tarkibida hali ham kommunistik tizimda ishlagan va shu tizimni qo‘llovchi shaxslarning bo‘lishi o‘tish davri partiya rivojlanishiga to‘siq bo‘lgan edi.

Qozog‘iston Respublikasida jamoat birlashmalari ancha ko‘p va faol, biroq ular orasida siyosiy partiyalarni huquqiy tartibga solishga alohida e’tibor beriladi. Mazkur partiyalar huquqiy maqomining asoslari O‘zbekistondagi kabi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan, siyosiy partiyalar to‘g‘risida, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risidagi qonunlarning mavjudligi va ularning ijrosi O‘zbekiston siyosiy partiyalari nisbatan huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Qozog‘iston qonunchiligiga ko‘ra, siyosiy partiyalar bu – davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlarida, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida fuqarolar va turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etish hamda ularning siyosiy irodasini ifodalash maqsadida Qozog‘iston Respublikasi fuqarolarining ixtiyoriy birlashmasi⁹.

O‘zbekistondan ham, Qozog‘istonda ham mintaqaviy partiyalar mavjud emas. Qonunchilik bilan tartibga solingan ikki davlatda ham ma’lum ma’muriy hududiy birlikni manfaatlarini himoya qiluvchi partiyalar faoliyati taqiqlangan. Fikrimiz dalili sifatida, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Bizda mintaqaviy partiyalar yo‘q va bo‘lmaydi ham. Chunki turli mintaqaviy partiyalar orqali yagona mamlakatimizning bo‘linib ketishiga hech ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday partiyalarning bo‘lishi turli mintaqalar o‘rtasida tortishuv va ziddiyatlar girdobiga qolib ketamiz”¹⁰-fikir-

⁸ Rico Isaacs. Party System Formation in Kazakhstan: Between formal and informal politics // Central Asian studies series. 2018. –P.4.

⁹ Қазақстандағы саяси партиялар туралы заң. 15.07.2002. // Электрондық ресурс: <https://adilet.zan.kz/kaz/docs/Z020000344>

¹⁰ Karimov. I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.; O‘zbekiston. 1997. –B.85.

mulohazalarni bayon etadilar. Ushbu fikrga qo'shilgan holatda, ma'lum bir ma'muriy-hududiy birlik manfaatlarini himoya qiluvchi partiyalar tuzish, mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya, "Siyosiy partiyalar to'g'risidagi" qonunga zid holat deb baholanib, partiyaning faoliyati taqiqlanadi.

O'zbekiston va Qozog'istonda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunlarning qiyosiy tahlil qilib quyidagi uyg'unliklar va tafovutlarni ko'rishimiz mumkin.

1. O'zbekiston "Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunga 3-moddasiga binoan konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi; O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi; urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi; xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi; milliy va diniy ruhdagi partiyalar tuzish man etilgan. Shunga monand ravishda, Qozog'istondagi qonunning 5-moddasida ham "Maqsadlari yoki harakatlari Qozog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, yaxlitligini buzishga, davlat xavfsizligiga putur yetkazishga, ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy, urug'-aymoqchilik va qabilaviy nizolarni avj oldirishga qaratilgan siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyati taqiqlanadi"¹¹.

2. Ikki davlat qonunlariga mos ravishda, sudyalari, maxsus davlat, huquqni muhofaza qilish organ vakillari, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining mansabdor shaxslari, Qozog'iston Respublikasi Oliy taftish palatasi raislari va a'zolari, Qozog'iston Respublikasidagi Inson huquqlari bo'yicha vakil, chet el fuqarolari partiya a'zosi bo'la olmaydi.

3. 6-moddaga binoan, O'zbekistonda siyosiy partiyaning tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagida bo'lgan kamida *yigirma ming* fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi¹². Qozog'istonda esa siyosiy partiya soni yetti yuz kishidan kam bo'lmagan, siyosiy partiyaning ta'sis syezdini (konferensiyasini) chaqiruvchi va viloyatlar, respublika ahamiyatiga molik shaharlar va poytaxtning uchdan ikki qismini vakil qiluvchi Qozog'iston Respublikasi fuqarolari guruhining tashabbusi bilan tuziladi.

4. Qozog'istonda partiyaning ro'yxatdan o'tkazish uchun tarkibida partiyaning barcha viloyatlardagi, respublika ahamiyatiga molik shaharlardagi va

¹¹Саяси партиялар туралы Қазақстан Республикасының Заңы 1996 жылғы 2 шілде N 16-І. // Электрондық ресурсы: https://zakon.uchet.kz/kaz/history/Z960000016_/11.07.1997

¹² O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonun. // Elektraon manba: <https://lex.uz/docs/-54191?ONDATE=07.02.2024&ONDATE2=18.03.2020&action=compare>

poytaxtdagi har birida kamida ikki yuz nafar partiya a'zosi bo'lgan tarkibiy bo'linmalari (filiallari va vakolatxonalari) nomidan vakillik qiluvchi kamida *besh ming* nafar partiya a'zosi bo'lishi kerak¹³.

5. Qozog'istonda siyosiy partiyaning davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar siyosiy partiyaning ta'sis syezdi (konferensiyasi) o'tkazilgan kundan e'tiboran to'rt oydan kechiktirmay ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etishi joiz. O'zbekistonda esa siyosiy partiyaning ro'yxatdan o'tkazish uchun ustav qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida tegishli hujjatlarni taqdim etishi lozim.

6. Qozog'iston Respublikasining siyosiy partiyalari xalqaro aloqalar o'rnatishi, tegishli bitimlar tuzishi va diniy birlashmalardan tashqari xalqaro notijorat nohukumat birlashmalariga jamoaviy a'zo sifatida kirishi mumkin. Afsuski, bu jihat O'zbekiston qonunchiligida aniq keltirib o'tilmagan.

7. Richard Gunzer va Larri Daymond siyosiy partiyalar turlari talqiniga binoan¹⁴, O'zbekistondagi barcha partiyalar **ommaviy partiyalar** sanaladi. Aksariyat qozoq partiyalari ommaviy partiya hisoblanib, "Amanat" partiyasi esa **jamiyatning barcha qismlarini qamrab oluvchi partiya (catch-all party)** sirasiga kiradi.

8. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Giovanni Sartori tomonidan ilgari surilgan siyosiy partiyalar tipologiya binoan¹⁵, Qozog'istonning bugungi kunda **gegemon partiyaga ega ko'ppartiyaviylik** qaror topgan. **Mo'tadil pluralizm qaror topgan ko'ppartiyaviylik tizim** esa O'zbekistondagi partiyaviy tizim uchun mosdir.

9. Partiyashunos olim L.Martinning partiyaviy tizimga doir tipologiyasiga binoan¹⁶, O'zbekistondagi partiyaviy tizim **mo'tadil ko'p partiyali tizim** sifatida tavsiflash mumkin, o'z navbatida **hukmron partiyaga ega kuchli ko'ppartiyaviylik** esa qozoq partiyaviy tizimi uchun xosdir.

10. Qozog'iston Respublikasida 2007-2011-yillar oralig'ida Nur Otan partiyasi Qozog'iston Parlament Majlisida mutlaq deputatli o'rinlarini qo'lga kiritgan, 2012-2016-yillar oralig'ida esa deputatlik o'rinlarining deyarli 81 foiziga ega bo'lgan, qolgan ikki siyosiy partiya kam miqdoridagi o'rinlarni bo'lishib olgan. Shu nuqtayi nazardan, Joan Blondel klassifikatsiyasiga ko'ra¹⁷, **bir yarim partiyali tizim** qaror topgan. O'zbekistonda esa shu davrda **ko'ppartiyaviy tizimning passiv shakli** hukm surar edi.

¹³ Қазақстан Республикасының 2002 жылғы 15 шілдедегі "Саяси партиялар туралы" N 344 Заңы.

¹⁴ Richard Gunther, Larry Diamond. Types And Functions Of Parties // Political parties and Democracy series. The Johns Hopkins University Press. 2001. –P.16.

¹⁵ Giovanni Sartori. Parties and Party Systems: A Framework for Analysis. Cambridge University Press. 2005. –P.117.

¹⁶ Alan Siaroff. Comparative European party systems: An Analysis of Parliamentary Elections Since 1945. Routledge. 2019. – P.82.

¹⁷ Jean Blondel. Comparing Political Systems. Praeger Publishers. 1972. –P.91.

11. Robert Dalning “Partiya tizimi va muxolifat shakllari”¹⁸ asarida partiyalar va partiyaviy tizimlar tipologiyasiga doir o‘z qarashlarini e‘lon qilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekistondagi partiyalar jamlanmasini **ichki birligi yuqori bo‘lgan ko‘ppartiyali tizim** sifatida namoyon bo‘ladi. Qozog‘istonda esa, **ichki birligi past bo‘lgan ko‘ppartiyali tizim** sifatida aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘zbek siyosiy partiyalarining saylovoldi dasturlari va taraqqiyot dasturlari bir biriga yaqin va bir birini to‘ldirib turadi, Qozoq partiyalari esa ham mafkuraviy, ham siyosiy jihatdan bir biridan keskin farq qiladi. Xususan, mamlakatda yetakchi bo‘lgan Amanat partiyasi 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot dasturida mamlakatning shaharlari jumladan Olmaota shahrini rivojlantirish dasturlari mavjud. Qozog‘iston “Ayl” xalq demokratik partiyasi esa asosan mamlakat qishloq xo‘jaligi va qishloqlarni rivojlantirishni asosiy saylovoldi dasturi sifatida e‘lon qilgan.

12. Alan Varening “Partiyalar va partiyaviy tizimlar”¹⁹ asaridagi tasniflashga ko‘ra, O‘zbekiston ham, Qozog‘iston ham partiyaviy **tizim bitta yirik partiya va bir nechta ancha kichik partiyalarga ega partiyali tizimlar** sifatida tasniflash mumkin.

Shuningdek, endi ikki qardosh respublikalarda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning o‘xshashliklari va tafovutlari to‘g‘risida to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

1.O‘xshashliklari:

- Qozog‘istonda ham, O‘zbekistonda ham partiyalar xalqning siyosiy irodasini shakllantirishda ishtirok etadilar;

- Chegaradosh ikki davlatda ham Sobiq sovet tizimidan meros bo‘lib qolgan avtoritar tuzumdan demokratik davlat qurish jarayonlari ancha mashaqqatli kechdi.

- Ikki qardosh davlatlar qonunchiligiga binoan, ma’lum e’tiqod asosidagi, etnik, ijtimoiy va harbiy partiyalar faoliyatiga yo‘l qo‘yilmaydi.

- O‘zbekistonda ham, Qozog‘istonda ham yangi tashkil etilgan har bir siyosiy partiya davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lishi shart.

- Partiyalar faoliyatining deyarli barcha masalalari (partiya tuzish, saylovlarda ishtirok etish, moliyalashtirish va hakoza)har ikki mamlakatda ham partiyalar to‘g‘risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi.

- O‘zbekistonda ham, Qozog‘istonda ham partiyalar o‘z faoliyatini faqat sud qarorlaridan keyingina cheklashi yoki butunlay to‘xtatishi mumkin.

- Mustaqillikning dastlabki yillarida ikki respublikada ham ko‘ppartiyaviylikni qo‘llab quvvatlovchi qonunlar qabul qilingan.

2. Farqli jihatlari:

¹⁸ Dahl Robert A. “Party Systems and Patterns of Opposition” in The West European Party System. 1990. Oxford: Oxford University Press. 1966. pp. 296-301

¹⁹ Ware, Alan. 1996. Political Parties and Party Sytems. Oxford: Oxford Univesity Press. –P.56.

- Qozog‘iston Respublikasida Parlament Majlisidan tashqari faoliyat yurituvchi partiyalar mavjud, ammo O‘zbekistonda bunaqa tartibda faoliyat yurituvchi partiyalar mavjud emas.

- Yaqin yillargacha Qozog‘istonda Prezident lavozimini bajarish mobaynida partiyadan chiqmagan, bu o‘z navbatida ushbu partiyaning hukmronligini ta’minlab bergan.

- Qozog‘istonda ma’lum jins vakillarini qo‘llab quvvatlovchi partiyalar (feministik partiyalar) tuzishga qonuniy ta’qiq qo‘yilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida Qozog‘iston ayollar partiyasi tashkil qilingan va 2004-yilgi partiyalar tuzishga doir o‘zgarishlardan so‘ng, partiya Qozog‘iston Adliya vazirligidan qayta ro‘yxatdan o‘ta olmagan.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalari siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarini tahlil qilish va qiyoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Turli tipologik yondashuvlarni tahlil qilish natijasida shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va Qozog‘iston siyosiy partiyalari va partiyaviy tizimning shakllanishi va rivojlanishi milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashib ketgan. O‘zbekistonda partiyaviy tizimning shakllanishi barqaror bo‘lsa, Qozog‘istonda esa mustaqillikning dastlabki yillarida partiyalar taraqqiyoti va partiyaviy tizimning shakllanishi birmuncha beqaror bo‘lgan bo‘lsada, keyingi davrda siyosiy tizimga xizmat qiluvchi partiyaviy tizim qaror topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Isaacs R. Party System Formation in Kazakhstan Between Formal and Informal Politics// Central Asian Studies. –New York: Routledge, 2011. – P. 152.
2. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. -T.: Sharq, 1998. – B.56-57.
3. Jo‘rayev Q. Rivojlangan davlatlarda ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi-demokratik taraqqiyotning muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida)
4. Bo‘tayev U. Siyosatshunoslik. Darslik. Toshkent. Best publish. 2023. –B.86.
5. Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va siyosiy partiyalar: Monografiya. T.:TDYI nashriyoti, 2010. –B.96.
6. Berdikulov S. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik milliy modelining falsafiy genezisi va rivojlanish istiqbollari. Doktorlik dissertatsiyasi.
7. Yangibayev.A.K. Siyosiy partiyalarning davlat vakillik organlari shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi. yurid. fan.nom. ...dis.avtoref. –T., 2020. –B.21.

8. Қазақстандағы саяси партиялар туралы заң. 15.07.2002. // Электрондық ресурс: <https://adilet.zan.kz/kaz/docs/Z020000344>
9. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T:, O'zbekiston. 1997. –B.85.
10. Саяси партиялар туралы Қазақстан Республикасының Заңы 1996 жылғы 2 шілде N 16-I. // Электрондық ресурс: <https://zakon.uchet.kz/kaz/history/Z960000016 /11.07.1997>
11. O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonun. // Elektraon manba: <https://lex.uz/docs/-54191?ONDATE=07.02.2024&ONDATE2=18.03.2020&action=compare>
12. Қазақстан Республикасының 2002 жылғы 15 шілдедегі “Саяси партиялар туралы” N 344 Заңы. // Электрондық ресурс: <https://zakon.uchet.kz/kaz/history/Z960000016 /11.07.1997>
13. Richard Gunther, Larry Diamond. Types And Functions Of Parties // Political parties and Democracy series. The Johns Hopkins University Press. 2001. –P.16.
14. Giovanni Sartori. Parties and Party Systems: A Framework for Analysis. Cambridge University Press. 2005. –P.117.
15. Alan Siaroff. Comparative European party systems: An Analysis of Parliamentary Elections Since 1945. Routledge. 2019. – P.82.
16. Jean Blondel. Comparing Political Systems. Praeger Publishers. 1972. –P.91.
17. Dahl Robert A. “Party Systems and Patterns of Opposition” in The West European Party System. 1990. Oxford: Oxford University Press. 1966. pp. 296-301
18. Ware, Alan. 1996. Political Parties and Party Sytems. Oxford: Oxford Univesity Press. –P.56.